

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

HAKIMOVA ZIYODA TOHIRJON QIZI

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TIKUV BUYUMLARI
KONSTRUKSIYASIGA OID TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK VA
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Science**

Hakimova Ziyoda Tohirjon qizi

Ingliz va o‘zbek tillaridagi tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning leksik-semantik va lingvokulturologik xususiyatlari.....3

Hakimova Ziyoda Tohirjon qizi

Lexico-semantic and linguoculturological characteristics of the terms concerning the construction of sewing items in english and uzbek23

Хакимова Зиёда Тохиржон кизи

Лексико-семантические и лингвокультурологические особенности терминов, относящихся к конструкции швейных изделий в английском и узбекском языках.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

HAKIMOVA ZIYODA TOHIRJON QIZI

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TIKUV BUYUMLARI
KONSTRUKSIYASIGA OID TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK VA
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil3905 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Hoshimova Dildora Madaminovna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponenlar:	Nabiyeva Dilora Abduxamidovna filologiya fanlari doktori, professor Vositov Valijon Abdurahobovich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Namangan davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSe.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «15» May soat 10.00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shahar, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi, 105. Tel.: (99873) 244-57-82, e-mail: fardu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona, Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «26» fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil «26» fevral dagi «7» raqamli reestr bayonnomasi)



S.M. Muminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T. Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol. f. n., professor

A.G. Sabirdinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tikuvchilik texnologiyasiga oid termin va leksemalarning qiyosiy-tipologik tahlili nafaqat lingvistik jihatdan muhim, balki madaniy hamkorlik, sanoat innovatsiyalari va iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ham katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot, shuningdek, tillar terminologiyasida mavjud bo'lgan semantik o'zgarishlar, tarixiy rivojlanish jarayonlari hamda madaniy ta'sirlarni ham aniqlashga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, tilshunoslikda o'zaro ta'sir va integratsiya jarayonlarini chuqurroq o'rganishga zamin yaratadi. Shuningdek, ushbu tadqiqot, tillararo taqqoslash usuli orqali tikuvchilikka oid terminlarning semantik strukturasi va ularning madaniy konnotatsiyalarini o'rganishga imkon beradi. Buning natijasida, turli madaniyatlar va ularning tikuvchilik an'analari haqida yanada kengroq tushuncha hosil qilish mumkin bo'ladi. Ushbu tahlillar, ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi leksik farqlarni ko'rsatib berish bilan birga, ularning terminologiyasidagi umumiyliklarni ham ochib beradi, bu esa ikki til terminologiyasining o'zaro boyishiga yordam beradi. Natijada, ushbu tillarning terminologik resurslari yanada boyib, tikuvchilik sohasida terminlardan foydalanishda yanada aniqroq va samaraliroq vositalarni yaratish imkonini beradi. Bu boradagi izlanishlar, nafaqat lingvistik, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki tillar o'rtasidagi terminologik almashinuv, albatta, madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarni ham mustahkamlaydi.

Dunyo tilshunosligida tikuvchilik texnologiyasiga oid termin va leksemalarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish, tillarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni va ularning farqli hamda o'xshash xususiyatlarini aniqlash imkonini bermoqda. Bu tahlillar talabalarda tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish jihozlarining vazifalari, turlari, ishlash prinsiplari va sozlanishlari haqida nazariy bilimlarni shakllantirishda, shuningdek, mashina va uskunalardan foydalanish, ularda amallarni bajarish, sozlash, kinematik va texnologik parametrlarini aniqlash bo'yicha ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda yordam beradi. Ushbu jarayonda talabalarining ingliz tilidagi qo'llanmalarni to'g'ri tushinishi va ulardagi tikuvchilik mahsulotlari terminlarini mukammal o'zlashtirishlari zarur bo'ladi. Natijada, talabalarining amaliy ko'nikmalari va kasbiy leksika bo'yicha bilimlari bir vaqtning o'zida chuqurlashadi, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini yanada mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda ham terminologiya bo'yicha tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. "...bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"¹. Ushbu iqtibosda ta'kidlanganidek, zamon bilan hamnafas bo'lish va muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsiyalarni qo'llash zarur. Bugungi kunda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini yangilash va rivojlantirish uchun yangi fikr va g'oyalarga asoslangan

¹Ўзбекистон республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 52. Манба: <http://lex.uz/docs/4561730>

yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion rivojlanishga intilgan davlatlar kelajakda muvaffaqiyat qozonishi kutilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, terminologik maydonning o'ziga xos xususiyatlari, terminlar semantikasi va ular orasidagi munosabat turlarini o'rganish, struktur-semantik xususiyatlarini aniqlash va shu xulosalar asosida tikuvchilik terminlarining o'zbek- ingliz tillaridagi multimediya elektron lug'atini yaratish ham ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda PF-5285-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2016-yil 21-dekabrda PQ-2687-son "2017-2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi, 2019-yil 16-sentyabrda PQ-4453-son "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 19-mayda PQ-5117-son "O'zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-avgustda 664-son "To'qimachilik sanoati korxonalarini yanada rag'batlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan kasbiy faoliyat, ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq qator vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovation g'oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida terminologiya bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ular asosan terminlarning umumiy nazariyasiga qaratilgan².

Shuningdek, dunyo tilshunosligida, xususan rus tilshunosligida³ umumiy va xususiy terminologiya bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

² Yazid A.I. Towards an interest-based approach to terminological competence acquisition. PhD dissertation. – Ohio: Kent State University, 2017; Cabre M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications / Ed. Juan C. Sager / – Amsterdam: Benjamins.; Helmi D., Loening K., Terminology: applications in disciplinary communication. – John Benjamins Publishing Company, 1993.; Jamal Mohamed Giaber. Translating derivational suffixes in linguistic terminology from English Arabic. PhD dissertation. – University of Edinburgh, 1999; Wright S.E., Budin G., Handbook of terminology management. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2001.

³ Антимирова В.В. Лексико-семантические и деривационные характеристики русской лингвистической терминологии: Дисс.... канд. филол. наук – Краснодар, 2011.; Гатаулина В.И. Английская терминология в диахроническом освещении: Дисс.... канд. филол. наук – Л., 1989; Колесникова Е.А. К проблеме становления русской лингвистической терминологии (вторая половина XVIII – первая треть XX вв.): лексикологический и лексикографический аспекты. Дисс. ... канд. филол. наук – Красноярск, 2011.; Кулакова И.С., Салмина Д.С. Введение в металингвистику (системный, лексикографический и коммуникативно-прагматический аспекты лингвистической терминологии). – СПб.: САГА, 2002.; Лантюхова Н.Н., Загоровская О.В., Литвинова Т.А. Термин: определение понятия и его сущностные признаки. – Вестник Воронежского института ГПС МЧС России // Выпуск 1 (6), 2013; Петросянц Э.Г. Лингвистическое терминополь: структура, семантика, деривация. –

Ingliz filologiyasida tikuvchilik terminologiyasi bo'yicha ishlagan taniqli olimlardan biri Kristin J.S.Smit hisoblanadi. U mato va tikuvchilik bilan bog'liq leksikologiyani tadqiq qilgan va ushbu mavzuga bag'ishlangan kitob yozgan⁴. Tikuvchilik terminologiyasi ustida ishlagan yana bir ingliz olimlardan biri Robert M.Sainsbury hisoblanadi. Uning "The Language of Textiles: A Study of Textile Terminology in English" kitobi⁵ to'qimachilik va tikuvchilik bilan bog'liq maxsus atamalarni o'rganishga bag'ishlangan. Boshqa bir muhim manba esa Karen L. Hudson tomonidan yozilgan "Sewing and Tailoring: A Linguistic Study" bo'lib, unda tikuvchilik vakiyim tikish jarayonida ishlatiladigan atamalar haqida lingvistik izohlar keltirilgan⁶. O'zbek tilshunosligida terminologiya masalalari G'.Abdurahmonov, H.Dadaboyev, I.X.Sodiqova, S.X.Nurmatova, O.Tursunova, P.P.Nishonov, O.S.Ahmedov, D.X.Qadirbekova, H.B.Mirzahmedova, S.T.Mustafayeva, D.S.Saidqodirova, D.I.Xodjayev, Ch.S.Abdullayeva, S.A.Azizov, H.D.Paluanova, X.A.Sarimsoqovlar tadqiqotlarida o'z aksini topgan⁷. Ushbu tilshunoslar terminologiyaning turli sohalari bo'yicha tadqiqot olib borishgan bo'lsalar, S.M.A'zamov va M.A.Aliyevalar aynan yengil sanoat va milliy gazlama, dizayn terminlari bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borganlar. Xususan, S.M.A'zamov o'zining to'qimachilik va yengil sanoat terminlarining derivatsion tadqiqiga oid dissertatsiyasida yengil sanoat tarkibiga kiruvchi tikuvchilik terminlarini ham misol tariqasida keltirib o'tadi. M.A.Aliyeva esa o'zbek milliy gazlama dizayniga oid dissertatsiyasida sohaga oid ba'zi terminlarning tahlilini keltirib o'tadi. Ammo terminologiyaga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, hanuzgacha

Пятигорск, 2004; Уткина Л.Н. Функциональные аспекты лингвистической терминологии в разных подходах к изучению языка: Автореф Дисс. ... канд. филол. наук – М., 2001.

⁴ Smith, Christine J. S. "The Language of Textiles: A Study of Sewing Terminology." Oxford University Press, 1995.

⁵ Robert M. Sainsbury, The Language of Textiles: A Study of Textile Terminology in English, 1988. London.

⁶ Karen L. Hudson, Sewing and Tailoring: A Linguistic Study, 1997. New York.

⁷ Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991.; Садыкова И.Х. Принципы составления англо-русско-узбекского учебного словаря юридических терминов: Дисс. ... канд. филол. наук – Ташкент, 1998.; Нурматова С.Х. Истоки формирования и функционирование астронавигационной терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – Ташкент, 2000.; Турсунова О. Ўзбек давлатчилиги тарихида қўлланган ҳуқуқий терминларнинг лисоний таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.; Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг киёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2016., Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017.; Мирзахмедова Ҳ.В. Форс тили транспорт терминларининг структур қатламлари ва ясаиш усуллари: Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017.; Мустафаева С.Т. Хитой тилшунослик терминологияси: Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017.; Саидқодирова Д.С. Инглиз ва ўзбек тиларида интернет терминларининг лингвистик тадқиқи. Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Ташкент: 2018.; Ходжаева Д.И. Тилшунослик терминларининг лексикографик таҳлили (инглиз, рус ва ўзбек тиллари изоҳли луғатлари материаллари мисолида): Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018.; Абдуллаева Ч.С. Русско-узбекские параллели в современной экономической терминологии: Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – Ташкент, 2000.; Абдурахмонов Ғ. Терминология муаммолари// Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт переспективалари: Биринчи Республика терминология конференцияси материаллари. – Тошкент: Фан, 1986.; Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида). Филол.фан. д-ри. (DS) ... дисс. – Тошкент, 2016.; Саримсақов Х.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштирма тадқиқи Фил. фан. д-ри. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020; A'zamov S.M. Inglizcha-o'zbekcha to'qimachilik va yengil sanoat terminlarining struktur-semantik tahlili. Filol.fan. d-ri...diss. – Andijon, 2021.

tikuvchilik terminlarini leksik-semantik, qiyosiy-tipologik yo‘nalishda, monografik yo‘sinda, xususan, ingliz va o‘zbek tillari misolida maxsus chog‘ishtirib o‘rganilmagan.

Dissertatsiya ishida qiyosiy tilshunoslik rivojiga katta hissa qo‘shgan Y.D.Poluvanov, J.B.Bo‘ronov, M.E.Umarxo‘jayev, O‘Q.Yusupov, G‘.M.Hoshimov, M.D.Djusupov va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan tillarni qiyosiy-chog‘ishtirib o‘rganish bo‘yicha umumiy qonuniyatlar, shuningdek, o‘ziga xos jihatlarni aniqlash mezonlari, tilshunoslik tamoyillariga asoslangan holda, turli tizimli tillarda tikuvchilik sohasiga oid terminlarning tarixiy shakllanishi hamda o‘ziga xos lingvistik xususiyatlari tadqiq qilinadi⁸.

Ilmiy ishda tikuvchilik sohasida qo‘llaniladigan terminlarning ingliz va o‘zbek tillarida o‘xshash va farqli (izomorfik va allomorfik) jihatlari hamda ularning leksik-semantik, lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilishi soha terminologiyasining yanada serqirra ekanligini namoyon qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Turli tizimli tillarning chog‘ishtirma va tipologik xususiyatlari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tikuvchilik sohasiga oid terminlarning ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llanilishidagi leksik-semantik va madaniy o‘ziga xosliklarni tahlil qilish orqali ushbu terminlarning madaniy mazmunini, ularning lingvistik xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifasi:

termin va terminologiya shakllanishini o‘rganish orqali uning asosiy nazariy mezonlarni belgilash;

ingliz va o‘zbek tillarida tikuvchilik terminlarining strukturaviy o‘zgarishlari va ularning qo‘llanilishidagi uslubiy xususiyatlarni chuqur o‘rganish;

ingliz va o‘zbek tillarida tikuv buyumlariga oid terminlarning tarixiy rivojlanishi va evolyutsiyasini aniqlash;

tikuvchilik terminlarining madaniy kontekstdagi o‘rnini va ularning o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar tarkibida qanday ifodalanganligini aniqlash;

badiiy matnlarda tikuv buyumlari terminlari ishtirok etgan iboralarning lingvokulturologik jihatlarni tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida tikuv buyumlari konstruksiyasi sohasiga oid leksik birliklar va terminlar tanlangan.

Tadqiqot predmeti ingliz va o‘zbek tillaridagi tikuvchilik sohasiga oid terminlar, ularning tarkibiy va semantik xususiyatlari, morfologik va lingvokulturologik xususiyatlari, ularni ifodalash usullaridan iborat.

⁸ Поливанов Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком. – Ташкент, 1934.; Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: 1983.; Умарходжаев М.Э. Проблемы типологии и вопросы фразиологии// «Теории перевода», «Сравнительная типология родного и изучаемого языков», «Интерпретация текста» на факультетов иностранных языков пед институтов. – Т., 1977.; Юсупов У.К. Проблемы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: ФАН, 1980.; Хашимов Г.М. Типология сложного предложения в разносистемных языках. АДД. – Ташкент, 2002.; Джусупов М.Д. Звуковые системы русского и казахского языков. Слог. Интерференция. Обучение произношению. – Ташкент: Фан, 1991.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida onomasiologik tahlil, leksik-semantik tahlil, qiyosiy-chog'ishtirma, tavsiflash, tasniflash hamda kuzatish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillaridagi tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning diaxronik rivojlanishi chuqur o'rganilgan, bu terminlar asrlar davomida ma'noviy o'zgarishlarga uchragani, ularning zamonaviy tillarda qanday ko'rinishda namoyon bo'lgani va tarixiy jarayonlarning ushbu sohada qoldirgan izlari keng qamrovda tahlil qilingan;

ingliz va o'zbek tillaridagi tikuv buyumlariga oid terminlarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, bu terminlarning ikki tildagi o'xshash va farqli jihatlari, ularning morfologik tuzilishi, sintaktik imkoniyatlari va semantik o'ziga xosliklari ilmiy asosda isbotlangan va tizimlashtirilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi tikuvchilik terminlarining funksional-semantik va uslubiy xususiyatlari ilmiy doirada keng ko'lamli tadqiqot obyekti sifatida o'rganilib, ushbu terminlar har ikkala tilda qanday stilistik va semantik yuklamalarni amalga oshirishi, ularning nutqiy vazifalari va turli kontekstlarda qanday funksional o'zgarishlarga duch kelishi aniqlangan va lingvistik qoidalar doirasida izohlab berilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlar va paremiyalarda uchraydigan tikuv terminlarining lingvomadaniy xususiyatlari keng qamrovda tahlil qilinib, tikuvchilik terminlarining frazeologik birliklar tarkibida qo'llanilishi, ularning madaniy va milliy qadriyatlarni aks ettirishdagi roli, shuningdek, bu sohadagi til birliklarining ingliz va o'zbek milliy madaniyatlarida qanday ifodalanganligi chuqur o'rganilgan va qiyosiy ravishda yoritib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tikuvchilik sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar tomonidan keng qo'llaniluvchi, ommabop hamda nutqimizda uchrayotgan yangi tikuvchilik sohasiga doir leksik-birliklarning ingliz, o'zbek tillarida shakllanishida o'ziga xos o'xshashlik va farqli jihatlari aniqlangan;

nofilologik ta'lim yo'nalishlari uchun ixtisoslik bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda, turli xil turdagi lug'atlarda berilgan tikuvchilik terminlarining leksikografik tavsifi, tikuvchilik terminlarining izohli lug'ati va o'quv lug'atlarini yaratish bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan tadqiqot usullari va ilmiy-nazariy ma'lumotlarning aniq ilmiy manbaalarga tayanganligi, keltirilgan tahlil hamda natijalarning asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati termin yasash qonuniyatlarini aniqlash va tushunish, formal strukturaning birlik tomonidan ifoda qilinayotgan mazmunga bog'liq ravishda xususiyatlarini o'rganish, leksik nominatsiyalarning terminologik birliklar

o‘rtasidagi mavjud aloqalar va munosabatlarni, xususan, sinonimiya, antonimiya va omonimiya munosabatlarini o‘rganish – bularning hammasi terminologiyani tartibga solish va standartlashtirish ishida katta ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nofilologik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarida ingliz tili fanidan amaliy darslarda, jumladan, tikuvchilik mahsulotlari texnologiyasi terminlarini o‘rgatishda, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv lug‘atlari yaratishda va universitetlarning filologik fakultetlarida “Umumiy tilshunoslik”, “Leksikologiya”, “Terminologiya asoslari” va “Leksikografiyaga kirish” kabi fanlar bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar tayyorlashda, shuningdek, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini yozishda foydali manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarni leksik-semantik va lingvokulturologik jihatdan qilingan tadqiq asosida:

ingliz va o‘zbek tillaridagi tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning diaxronik rivojlanishi, bu terminlar asrlar davomida ma‘noviy o‘zgarishlarga uchrangani, ularning zamonaviy tillarda qanday ko‘rinishda namoyon bo‘lgani va tarixiy jarayonlarning ushbu sohada qoldirgan izlari tahliliga doir xulosa va tavsiyalaridan O‘zbekiston Milliy universitetida 2021-2022-yillar davomida bajarilgan A-OT-2021-419-sonli “Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish kursi uchun electron platformasini yaratish (PreschoolIPDP)” mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan. (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 2-apreldagi 04/11-2493-son ma’lumotnomasi). Natijalarning qo‘llanilishi orqali loyiha doirasida o‘quv adabiyotlari, tarqatma materiallarini yaratishda va OAVda maqola chop etishda hamda ommaviy auditoriyani keng jalb qilishda o‘ziga xos vazifani bajarishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi tikuv buyumlariga oid terminlarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlari qiyosiy tahlili, bu terminlarning ikki tildagi o‘xshash va farqli jihatlari, ularning morfologik tuzilishi, sintaktik imkoniyatlari va semantik o‘ziga xosliklariga doir xulosa va tavsiyalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2020-2023-yillarda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172. “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” nomli grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetning 2024-yil 6-iyundagi 04/1-1474-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratishda terminologiyaning ahamiyati ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi tikuvchilik terminlarining funksional-semantik va uslubiy xususiyatlari, ushbu terminlarning har ikkala tilda qanday stilistik va semantik yuklamalarni amalga oshirishi, ularning nutqiy vazifalari va turli kontekstlarda qanday funksional o‘zgarishlarga duch kelishiga doir xulosa va tavsiyalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efrirga uzatilgan “Taqqimot” ko‘rsatuv ssenariylarini tayyorlashda foydalanildi (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 2-maydagi 02-06-598-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv ssenariysida o‘zbek

milliy tikuvchilik buyumlariga oid terminlarning rivojlanish asoslari yaqqol ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta , jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik disseratsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 2 ta xalqaro jurnallarda) e'lon qilingan. Dissertatsiya mavzusiga oid inglizcha izohli lug'at tayyorlandi.

Disseratsiyaning tuzilishi va hajmi. Disseratsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 148 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning nazariy masalasi”** deb nomlangan birinchi bobida tilshunoslikda termin va terminologiyaning shakllanishi haqidagi turlicha nazariy qarashlar o'rgalangan va bu borada olimlarning fikrlari tahlil qilinganligi bilan bir qatorda tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning lingvistik xususiyatlari ham yoritib berilgan.

Ushbu bobning *“Tilshunoslikda termin va terminologiya shakllanishining nazariy masalalari”* deb nomlangan birinchi faslida termin va terminologiya haqida turli nazariyalar keltirib o'tilgan. Ilm-fan taraqqiyoti va globallashuv jarayoni tufayli insonlarning til boyligi yangi tushunchalar bilan boyib bormoqda. Bu esa o'z navbatida terminlarni o'rganish uchun ehtiyojga sabab bo'ladi. Chunki har bir termin ma'lum bir sohaga doir tushunchalarni ifodalaydi. Dunyo olimlari termin so'ziga turlicha ta'riflarni berib o'tganlariga qaramasdan termin so'ziga mukammal ta'rifning yo'qligi ushbu soha yanada ko'proq tadqiqotga muhtoj ekanligini ko'rsatadi. Terminga olimlar bergan ta'rifni izohlashdan avval uning etimologiyasiga nazar tashlaymiz.

“Terminus” – o'rta asrlardagi lotin tilida *“aniqlash, belgilash”* degan ma'noni anglatadi. Katta Oksford lug'ati mualliflarining fikriga ko'ra, aynan ushbu ma'no ta'siri osida ingliz tilida *“term”, “termin”* so'zi shakllangan⁹.

“Termin tushunchasi dastavval *chegaralar ilohiyligi*, keyinroq esa *chegara toshi*, *so'nggi* yoki *tugallangan joy*, *manzil* kabi bir necha ma'nolarda qo'llanilgan. O'rta

⁹Ткачева Л.Б. Основные закономерности английской терминологии. Томск, Омск, Изд-во гос. ун-та 1987. – С.198

asrlarga kelib esa *terminus* soʻzi (biror narsani) *aniqlash, belgilash* degan maʼnoda qoʻllanilgan”¹⁰.

Ushbu lugʻatdagi izohlarga koʻra, termin soʻzi “chek, chegara” maʼnosida dastlab XVI asrda lotin tilidan qadimgi fransuz tiliga oʻzlashgan va fransuz tili orqali ingliz tiliga kirib kelgan.

“Termin” konseptining shakllanish jarayoni turlicha yondashuvlarga asoslanadi. Buning dastlabki sababi ushbu tushuncha juda murakkab boʻlsa, ikkinchi tomondan “konsepsiya” soʻzining oʻzi ham taʼriflash va anglash eng qiyin boʻlgan tushunchalardan biridir. Terminga berilgan taʼriflar turlichaligining yana bir sabablaridan biri termini hamma oʻz tadqiqot sohasi nuqtayi nazaridan kelib chiqib izohlaydi. Demak tilshunoslar ham termini lingvistik jihatdan yondashib taʼriflaydilar.

Ilmiy adabiyotlarda termin xususida turlicha fikrlar berilgan. Deyarli barcha berilgan taʼriflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi soʻz yoki soʻz birikmasi tarzida taʼriflanadi.

O.Vinokurning fikricha, “termin – har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongʻli shakllantiriladi. Zero, termin oʻz-oʻzidan, stixiyali tarzda paydo boʻlmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi”¹¹.

Terminologiya boʻyicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ularning aksariyatida terminologiyaning shakllanish jarayoni aynan globallashuv va fan-texnika taraqqiyoti davriga toʻgʻri kelishi aytib oʻtilgan. Aynan shu omillar terminologiya fanining vujudga kelishiga sabab boʻlgan. Demak termin oʻz-oʻzidan shakllanmaydi, balki O.Vinokurning taʼrifidek “jamiyat ehtiyoji tufayli” yaratiladi. Dastlab tikuv buyumlari qoʻl yordamida tayyorlanganligi, vaqt oʻtib esa tikuvchilik mashinasi ixtiro qilinganligi sababli tikuv mashinasi bajaradigan jarayonlarni, uning tarkibiy qismlarini, uning imkoniyatlarini taʼriflash uchun tikuvchilik sohasida yangi tushunchalarga, yaʼni terminlarga ehtiyoj vujudga keladi. Bu esa oʻz navbatida yangi terminlar shakllanishi uchun zamin yaratadi,

Terminologiya sohasida izlanishlar qilgan olim A.A.Reformatskiyning taʼrificha, “termin – bu soʻz boʻlib, oʻzining alohida va maxsus belgilar bilan chegaralanadi; u fan, texnika, ekonomika(iqtisodiyot), siyosat va diplomatiya sohalarida qoʻllanuvchi bir maʼnoli aniq soʻz hisoblanadi”¹².

Oʻzbek tilshunosi H.Dadaboyev oʻzining “Oʻzbek terminologiyasi” nomli oʻquv qoʻllanmasida terminga olimlar tomonidan berilgan taʼriflarni izohlab oʻtadi. Shuningdek tilshunos termin haqida oʻz fikrlarini ham bildiradi: “Termin soʻzini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunoslar(logiklar) uchun termin - aniq obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yigʻindisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi soʻz hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan soʻz termin boʻlishi mumkin.

¹⁰Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4-жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006-2008. – Б. 178

¹¹ Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.%. Сборник статей по языкознанию. – М., 1961. – С.3-10.

¹² Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка// Проблемы структурной лингвистики. – М.,1968. – С. 110.

Fan va texnikada termin sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z sanaladi"¹³.

Ikkinchi fasl esa "*Tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning diaxroniyasi*" deb nomlangan bo'lib, tikuvchilikka oid terminlarning davrlar osha rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumotlar berilgan. Yevropada o'rta asrlarda tikuvchilar yuqori hurmatga sazovor kasb egalari bo'lib, oliy tabaqa vakillari va boylar uchun liboslar yaratganlar. Bu davrda tikuvchilikda yangi texnologiyalar va vositalar paydo bo'lgan, ularni ifodalash uchun turli terminlar ishlatilgan. Masalan, "seam" (biriktirib tikish), "hem" (chetki qaytarma chok), "bias" (diagonal yo'nalish), "pleat" (taxlama) kabi so'zlar qo'llangan.

18-19-asrlarda Sanoat inqilobi tikuv mashinasining ixtiro qilinishiga turtki bo'ldi. Charlz Veisental, Tamas Saint va Elias Howe kabi ixtirochilar tikuv mashinalarining rivojlanishiga hissa qo'shishgan. Isaak Singer esa Howe dizaynini takomillashtirib, tikuv mashinasini ommalashtirdi. Ushbu ixtiro natijasida "bobbin" (naycha), "thread tension" (ip tortgich), "presser foot" (tepki) kabi yangi terminlar lug'atga kiritilgan.

Tikuv mashinasining yaratilishi tilning lug'at boyligini oshirdi. Tikuv mashinasi bilan bog'liq terminlar orasida "feed dogs" (matoni suruvchi qism) va "stitch length dial" (choklar orasidagi masofa) ham mavjud.

Dissertatsiyaning "**Tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlari**" deb nomlanuvchi ikkinchi bobida ingliz va o'zbek tillaridagi tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning diaxroniyasi haqida ma'lumotlar berilgan va har ikki tildagi tikuvchilikka oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlari tahlillar asosida yoritib berilgan.

Ushbu bobning "*Tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning derivatsion-morfologik xususiyatlari*" nomli birinchi faslida tikuvchilikka oid terminlarning tarkibi, yasalishi va morfologik tarkibi haqida ma'lumotlar berilgan. Tikuvchilik sohasida qo'llaniladigan terminlar, ayniqsa tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlar, o'zlarining derivatsion-morfologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Derivatsion-morfologik xususiyatlar, bir tilning so'zlar va terminlar tuzilishini o'rganish orqali, terminlarning qanday shakllanishi va morfologik birliklar orqali qanday ma'no o'zgarishlarini yuzaga keltirishi haqida ma'lumot beradi. Tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlar, bu sohaning texnik va kasbiy ehtiyojlariga javob berish maqsadida, ko'plab derivatsion va morfologik jarayonlarga uchraydi.

Terminlarning derivatsion xususiyatlari ularning yangi atamalarni yaratish va mavjud atamalardan yangi ma'nolar hosil qilish qobiliyatini ifodalaydi. Tikuvchilikda bunday jarayonlar ko'pincha affiksatsiya, kompozitsiya, qisqartirish va boshqa derivatsion usullar orqali amalga oshiriladi. Masalan, "tikmoq" (fe'l) so'zidan "tikuvchi" (ot) yoki "tikuvchilik" (ot) kabi yangi terminlar yaratilishi mumkin. Morfologik xususiyatlar esa, terminlarning ichki tuzilishini va ularning qanday morfologik birliklardan tashkil topganini o'rganadi.

Tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning derivatsion-morfologik xususiyatlarini o'rganish, bu sohada ishlatiladigan atamalarning ilmiy-tadqiqot va

¹³ Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi: o'quv qo'llanma . – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – B.5.

amaliy qo‘llanilishida qanday o‘zgarishlar yuz berishini tushunishga yordam beradi. Bu o‘zgarishlar, o‘z navbatida, tikuvchilik sohasining texnik va madaniy kontekstida atamalarni yanada aniqroq va to‘g‘ri ifodalash imkonini beradi.

“*Tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning leksik xususiyatlari*” deb nomlangan ikkinchi faslida tikuvchilik terminlarining leksik xususiyatlari, ularning lug‘at tarkibidagi o‘rni keng yoritib berilgan. So‘zning leksik xususiyatlari ko‘plab olimlarning izlanishlarida tadqiqot obyekti bo‘lgan. Masalan, Britaniyalik tilshunos J.R.Firz¹⁴ o‘zining leksikografiya va leksik-semantika yo‘nalishlarida olib borgan izlanishlari bilan keng tanilgan. J.R.Firz leksikografiya sohasiga “kontekstual yondashuv”ni olib kirgan. Ushbu yondashuvda so‘zlarning ma’nolariga izolyatsion birlik sifatida qarashni to‘xtatib, so‘zlar qo‘llanilayotgan kontekstga e’tibor berishga undaydi. J.R.Firz ishonadiki, so‘zning ma’nosi o‘zi qo‘llanayotgan kontekstga bo‘g‘liq. Uning ta’kidlashicha, so‘zlarning nutqda qanday ma’noni anglatayotganini bilish uchun u bilan birga kelayotgan so‘zlarga e’tibor qaratish lozim.

Rossiyalik tilshunos Vladimir Propp¹⁵ o‘zining xalq og‘zaki ijodi namunalari morfologik tahlili sohasida qilgan izlanishlari uchun mashhur bo‘lgan. Shuningdek, amerikalik tilshunos Zellig Harris¹⁶ va britaniyalik tilshunos Maykl Halliday¹⁷ ham leksikologiya sohasi bo‘yicha izlanishlar olib borganlar.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, leksikologiya bu tilning lug‘at boyligini o‘rganadi. Demak, tikuv buyumlarining leksik xususiyatlarini o‘rganish uchun avvalo ushbu terminlar tilning lug‘at boyligini qay darajada boyita olgani va qanday ma’no o‘zgarishlariga duch kelganini tahlil qilamiz.

Tikuvchilikka oid terminlarni diaxronik analiz qilish davomida aniqladikki, tikuvchilik terminlari vaqt o‘tgani sari tilning lug‘at boyligini oshirib bordi. Misol uchun, *thread- ip* so‘zi ot vazifasida paydo bo‘lgan bo‘lsa, uning *to thread – ip* o‘tkazmoq kabi fe‘l shakli yana bir yangi ma’noni hosil qildi. *To thread a needle – iganaga ip o‘tkazmoq* birikmasi esa lug‘at boyligimizni yana bir yangi so‘z birikmasi bilan boyitdi. Tahlilimiz davomida bunday misollarning bir qanchasiga duch keldik:

Needle – igna

A needle and thread – igna va ip

Pins and needles – igna va to‘g‘nog‘ichlar

A needle in a haystack – topish deyarli imkonsiz ma’nosini bildiruvchi ibora

to needle – birovni ataylab jahlini chiqarmoq

Needlepoint – kashta

Needlewoman – tikuvchi

Needlework – tikuvchilik yoki qo‘lda tikilgan narsalar.

Yuqorida ko‘rib turganimizdek, tikuvchilik sohasida qo‘llaniluvchi birgina *needle – igna* so‘zi tilimizni shuncha ko‘p so‘zlar va so‘z birikmalari bilan boyitdi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaricha qaraladigan bo‘lsa, so‘z ifoda plani (so‘zning aytilishi) va mazmun plani (ma’nosi) birligidan tashkil topadi. Biroq so‘zni o‘zi

¹⁴ J.R. Firth, *Papers in linguistics*. London: Oxford University press, 1957.

¹⁵ В.Я. Пропп. *Морфология сказки*. Л.: Академия, 1928; 2-е изд.

¹⁶ Zellig Harris. *Papers in Structural and Transformational Linguistics*. New York: Humanities Press, Inc., 1970.

¹⁷ M.Halliday. *On Language and Linguistics*. Oxford, 2006.

anglatayotgan predmet yoki tushuncha bilan bog‘lasak, so‘z atrofdagi predmet va tushunchalarning odam ongida aks etishi va uni til orqali ro‘yobga chiqarilish jarayoni ekanligini guvohi bo‘lamiz. Bu aks ettirish esa, albatta, tafakkur orqali ro‘yobga chiqadi. Shu tariqa so‘z nafaqat predmet, balki tushuncha, hodisa yoki belgini ifodalay oladi. Lekin bu degani so‘z aynan predmet yoki tushunchani qanday bo‘lsa shundayligicha ifodalaydi degani emas. So‘z biror predmetni atash orqali shu guruhdagi barcha narsalarga ishora qiladi. Misol uchun *ip* so‘zi ipning rangi va turidan qat’i nazar uning barcha turlarini o‘z ichiga oladi. Ko‘rib turganimizdek, bu yerda umumlashtirish ma‘nosi mavjud. Agar bu so‘z qachonki boshqa so‘zlar bilan o‘zaro aloqaga kirishsa yoki ma‘lum grammatik qo‘shimchalar qo‘shilsagina aniqroq ma‘noni ifodalashi mumkin. Masalan, *pishiq ip, xom ip, ip gazlama, botinka ipi, ignaga ip o‘tkazmoq, mashinaga ip solmoq, do‘stlik ipi* va shu kabilar. Yoki bo‘lamasa *igna* so‘zini olsak, u ham qanday maqsadda foydalanishiga qaramasdan barcha tur ignalarni o‘z ichiga oladi, faqatgina boshqa so‘zlar bilan o‘zaro aloqaga kirishganuidagina uning ma‘nosi aniqlashadi: *mashina igna, qaviq igna, patefon ignasi, igna bilan davolash, daraxt ignasi, kirpi ignasi va shu kabilar.*

Uchinchi fasl esa “*Tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning semantik tadqiqi va tasnifi*” deb nomlangan va unda tikuvchilik terminlarining semantik xususiyatlari bilan birgalikda uslubiy xususiyatlari haqida ham so‘z yuritilgan. Tikuvchilik terminlarining ayrim semantik xususiyatlari haqida gap ketganda, avvalo, tikuvchilik terminlari va ular ifodalayotgan ma‘noning o‘ziga xosligi nazarda tutiladi. Birinchidan, tikuvchilik atamaları jarayonga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ushbu sohada qo‘llaniluvchi asosiy terminlar asosan harakatga asoslangan va harakatni tasvirlaydi. Misol uchun, *sewing, hemming, seaming, stitching* so‘zlari tikish jarayonidagi turli bosqichlarni ifodalaydi. Soha atamalarining yana bir semantik xususiyati shundaki, tikuvchilik asosan tikuv vositalari, jumladan, tikuv mashinasi yordamida bajarilganligi sababli ushbu soha terminlari orasida texnik so‘zlar ham keng qo‘llaniladi. Tikuv mashinasi, qaychi, igna kabi vositalar bilan bog‘liq atamalar ko‘pincha texnik jarayonlar yoki usullarga ishora qiladi. Bu texnik terminlar tikuvchilikning texnologik rivojlanishi bilan birga o‘zgarib, yangilanib boradi va shu yo‘l bilan sohaning terminologik tizimida ham o‘z aksini topadi. Masalan, "overlock" – "chetlarni tikish" texnik termin sifatida tikuv mashinasida chetlarni tikish texnikasini ifodalaydi. Shuning uchun, soha terminologiyasining semantik xususiyatlarini to‘liq tushunish uchun texnik terminlarning o‘rni va ularning qo‘llanilishi ham e‘tiborga olinishi kerak. Bunday terminlar maxsus ma‘noga ega bo‘lib, quyida ularning ba‘zilarini keltirib o‘tamiz:

Bobbin – naycha

Presser foot- matoni ezib turuvchi

Feed dogs – mato surgich

Stitch length dial – chok uzunligini

Foot pedal – tepki

Hand wheel – igna balandligini boshqaruvchi tugma

Spool pin – ip qo‘yish uchun metal tayoqcha

Thread ip kesgich

Tikuvchilik terminlarining funksional-semantik xususiyatlari bu terminlarning qanday kontekstda va qanday vazifani bajarishini aniqlaydi. Tikuvchilik sohasida ishlatiladigan terminlar nafaqat aniq bir predmet yoki jarayonni ifodalaydi, balki ularning funksional yuklamasi ham bor. Bu xususiyatlar terminlarning qaysi sohalarda, qanday ma'noda va qaysi kontekstlarda qo'llanishiga bog'liq bo'ladi.

Tikuvchilik terminlarining kontekstga bog'liqligi ularning turli vaziyatlarda, turli ma'nolarni ifodalash qobiliyatiga asoslanadi. Bu holat ushbu terminlarning ma'lum bir soha doirasida keng qo'llanishidan kelib chiqadi. Tikuvchilik sohasida ko'p ishlatiladigan ba'zi terminlar har xil kontekstda turlicha ma'nolarni anglatishi mumkin, bu esa ularning funksional-semantik xususiyatlarini yanada kengaytiradi.

Tikuvchilik so'zlari yoki terminlari ko'pincha bir nechta ma'noda qo'llanilishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, texnik va texnologik jarayonlarda, dizaynda yoki kiyim tikishda ko'rinadi. Misol uchun, "dart" termini nafaqat kiyimdagi bukmalarni ifodalashda, balki matematik aniqlik darajasini ifodalashda ham qo'llanilishi mumkin. Misol uchun:

"Dart" so'zi tikuvchilikda aniq bir joyda kiyimning shaklini to'g'rilash yoki toraytirish uchun qilingan bukmalarni anglatadi. Biroq, bu so'z boshqa kontekstlarda, masalan, grafik dizaynda yoki matematikada, biror narsaning aniqligi yoki joylashish darajasini ifodalashda ishlatilishi mumkin. Tikuvchilikda esa "dart" kiyimning o'tirishini yaxshilash uchun matoga berilgan kichik shakl o'zgarishlarini anglatadi.

"Pleat" (bukma) so'zi ham shunga o'xshash ko'p ma'nolikka ega bo'lishi mumkin. Tikuvchilikda "pleat" kiyimning dekorativ qismi bo'lib, mato ustiga qilingan qatlamlarni ifodalaydi. Biroq, "pleat" so'zi boshqa kontekstlarda, masalan, qog'oz yoki boshqa materiallar bilan ishlashda, ular ustiga qilingan bukmalari yoki qatlamlar ma'nosida qo'llanilishi mumkin.

Dissertatsiyaning **"Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlar tarkibida qo'llangan tikuv buyumlari terminlarining lingvokulturologik tadqiqi"** deb nomlangan uchinchi bobida tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlarning maqol va iboralarda qo'llanilishi, bu orqali xalq madaniyatining ifodalanishi keng yoritib berilgan. Bundan tashqari bu bobda o'zbek va ingliz badiiy adabiyotlariga murojaat qilinib, ularda qo'llangan tikuvchilik terminlari ishtirokidagi maqol va iboralar tahlil qilingan, ularning lingvomadaniy xususiyati ochib berilgan.

Birinchi fasl *"Ingliz va o'zbek tillaridagi ibora va maqollar tarkibida qo'llangan tikuv buyumlari terminlarining lingvomadaniy jihatlari"* deb nomlangan va unda tikuvchilik terminlarining iboralar, maqollarda qo'llanishining madaniy ahamiyati o'rganilgan. Bundan tashqari shunga oid misollar ham tahlil qilib berilgan.

Ingliz va o'zbek tillarida tikuv buyumlari konstruksiyasiga oid terminlar ishtirok etgan ko'plab iboralarni uchratishimiz mumkin. Bu esa albatta ikki til o'rtasidagi o'zaro izomorfik xususiyatni yuzaga keltiradi. Demak ingliz xalqi uchun ham tikuvchilik qadimdan meros bo'lib qolgan hunarmandchilik turi bo'lgan va buning natijasida unda qo'llaniladigan so'zlar xalq tiliga singib, ibora sifatida ham qo'llanila boshlagan. Quyida tikuvchilikka oid terminlar qo'llangan iboralarga ba'zi misollar va ularning lingvomadaniy xususiyatiga ta'rif berilgan:

1) *a needle in a haystack* – someone or something that is very hard to find¹⁸. Ushbu ibora o‘zbek tilidagi “anqoning urug‘i” iborasiga to‘g‘ri keladi desak adashmaymiz. Chunki ushbu ibora topish juda mushkul bo‘lgan shaxs yoki narsaga ishora qiladi. Yuqoridagi ibora lingvomadaniy xususiyatga ega, chunki ushbu ibora ingliz tilida vujudga kelgan idiomatik ibora hisoblanadi. U o‘ziga xos madaniy tushunchani aks ettirish bilan bir qatorda, odatda kichik o‘lchamli narsaning o‘ta katta yoki tartibsiz joydan qidirish yoki topish juda qiyin va mashaqqatli ekanligini ifodlash uchun qo‘llaniladi. Bu ibora qishloq xo‘jaligida keng tarqalgan quritilgan somon uyumi bo‘lmish pichan haqidagi madaniy bilimga tayanadi. Igna esa, barchaga ayonki, tikish uchun foydalaniladigan o‘ta kichik va nozik predmetdir. Igna o‘lchami va pichan ko‘rinishi o‘rtasidagi tafovutga e‘tibor bersak, o‘ta keng va tartibsiz muhitda kichik va ahamiyatli narslarni topish mushkul yoki imkonsiz ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Idiomatik ibora sifatida “a needle in a haystack” ingliz xalqi orasida o‘z ma‘nosidan tashqari metaforik ma‘noda ko‘proq qo‘llaniladi. Ushbu ibora ingliz tilida so‘zlashuvchilar tomonidan keng tushuniladi va shu orqali o‘zining lingvomadaniy jihatini namoyon qiladi. Endi esa ushbu ibora qo‘llanilishiga misol keltiramiz. Aytaylik, siz do‘stingiz bilan juda ulkan kutubxonadan ma‘lum bir kitobni qidirish haqida suhbatlashyapsiz:

Your friend: “I have been looking this book for hours, but can find it nowhere!”

You: “Well, finding a special book in this huge library is like searching a needle in a haystack. It is going to be extremely difficult”.

Ushbu misolda “a needle in a haystack” iborasi majoziy ma‘noda qo‘llanilgan bo‘lib, o‘ta ulkan kutubxonada ma‘lum bir kitobni topish juda qiyinligini ko‘rsatyapti. Bu esa vazifaning ulkanligi va natija imkoniyatining juda kichik ekanligini ta‘kidlaydi, xuddi pichan uyumidan igna qidirgandek.

2) *Adam’s needle* – bu ibora ma‘lum o‘simlik turiga ishora qilish uchun ishlatiladi. O‘simlikning ushbu nomi ingliz tilida so‘zlashuvchi hududlarda o‘zining lingvisitik va madaniy ildizlariga egadir. Ko‘pchilikning fikricha o‘simlikning ignaga o‘xshash uchli barglari tufayli shunday nom berilgan. Ushbu ibora ham o‘z lingvomadaniy xususiyatiga ega. Bunday jihatlarni asosan, o‘simliklarga beriladigan umumiy nomda ko‘rishimiz mumkin, ya‘ni turli madaniyatlar va tillar ko‘pincha o‘ziga xos turlar uchun o‘z nomlari va uyushmalariga ega. Bu nomlar asosan, mahalliy bilimlarni, an‘analarni va o‘z mintaqalaridagi o‘simliklarga tegishli madaniy ahamiyatni aks ettiradi.

– I have a beautiful Adam’s needle plant in my garden. Its long, slender leaves with sharp tips add an interesting texture to the landscape”.

4) *eye of the needle*¹⁹ – uddalash juda qiyin yoki imkonsiz bo‘lgan topshiriq.

Ushbu ibora lingvomadaniy xususiyatga ega, negaki u Injildagi oyatdan kelib chiqqan va ingliz tilida muloqot qiluvchi madaniyatlarda qo‘llaniladi. Bu ibora asosan metaforik ma‘noni yetkazishda foydalaniladi. Bu iboraning madaniy ahamiyati uning diniy kelib chiqishi va ingliz tilida so‘zlashuvchi madaniyatlarda Injil hikoyasining kenroq tarqalganligidir.

¹⁸ Merriam-webster.com

¹⁹ Linda, Roger Flavel, “The Dictionary of Idioms and Their Origins”, New York, 1993, – P 236.

5) *thread the needle* – ushbu ibora ham madaniy xususiyatga ega, sababi u ko‘plab mamlakatlarda an’anaviy ahamiyatga ega bo‘lgan tikuvchilik tasviriga asoslangan. Aniqlik va epchillikka ushbu iborada alohida ahamiyat berilgan bo‘lib, mohir hunarmandlar xususiyati ta’kidlanadi. Bu ayniqsa tikuvchilik rivojlangan jamiyatlarda tikuv texnikasi va albatta ignadan foydalanishning madaniy tushunchasini aks ettiradi.

